

**BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/27.02.2020F.72.08 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

NAVOIY DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

SAFAROV ULUG‘BEK TURSUNOVICH

**MADANIY JARAYONLAR TRANSFORMATSIYASIDA
YOSHLAR ETIKASINI SHAKLLANTIRISH OMILLARI**

09.00.04 – Ijtimoiy falsafa

**FALSAFA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI
AVTOREFERATI**

Buxoro – 2023

**Falsafa fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
по философским наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD) on
philosophical sciences**

Safarov Ulug‘bek Tursunovich

Madaniy jarayonlar transformatsiyasida yoshlar
etikasini shakllantirish omillari 3

Сафаров Улугбек Турсунович

Факторы формирования молодежной этики в условиях
трансформации культурных процессов 23

Safarov Ulugbek Tursunovich

Factors of formation of youth ethics in the conditions
of transformation of cultural processes 43

E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati

Список опубликованных работ
List of publications works 48

**BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/27.02.2020F.72.08 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

NAVOIY DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

SAFAROV ULUG‘BEK TURSUNOVICH

**MADANIY JARAYONLAR TRANSFORMATSIYASIDA
YOSHLAR ETIKASINI SHAKLLANTIRISH OMILLARI**

09.00.04 – Ijtimoiy falsafa

**FALSAFA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI
AVTOREFERATI**

Buxoro – 2023

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2022.4.PhD/Fa1869 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya Navoiy davlat pedagogika institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida (www.buxdu.uz) va “Ziyonet” Axborot ta‘lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Safarova Nigora Olimovna
falsafa fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Nazarov Qiyom Normerzayevich
falsafa fanlari doktori, professor

Yaxshilikov Jo‘ravoy Yaxshilikovich
falsafa fanlari doktori, professor

Yetakchi tashkilot:

Urganch davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi Buxoro davlat universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.03/27.02.2020.F.72.08 raqamli ilmiy kengashning 2023-yil “7” Dekabr soat 10⁰⁰ dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 200114, Buxoro shahri, M.Iqbol ko‘chasi, 11-uy. Tel.: (65) 221-29-14; faks: (65) 221-57-27, e-mail: buxdu_rektor@buxdu.uz)

Dissertatsiya bilan Buxoro davlat universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (389 raqami bilan ro‘yxatga olingan). (Manzil: 200114, Buxoro shahri, M.Iqbol ko‘chasi, 11-uy. Tel.: (65) 221-25-87.)

Dissertatsiya avtoreferati 2023-yil “24” NOYABR kuni tarqatildi.
(2023-yil “24” NOYABR dagi 26 raqamli reyestr bayonnomasi.)



Navro‘zova G.N.

Ilmiy darajalar beruvchi

ilmiy kengash raisi,

falsafa fanlari doktori, professor

Sharipov A.Z.

Ilmiy darajalar beruvchi

ilmiy kengash kotibi,

falsafa fanlari doktori, professor

Sharipova O.T.

Ilmiy darajalar beruvchi

ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi,

falsafa fanlari doktori, dotsent

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertasiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda hozirgi globallashuv, jadal sur'atlarda kechayotgan ijtimoiy-iqtisodiy, dinamik o'zgarishlar madaniy jarayonlarning transformatsiyalashuvini keltirib chiqarayotganligi bugungi kunning muhim muammolaridan hisoblanadi. Xususan, madaniy jarayonlarning transformatsiyalashuvi birinchi navbatda yoshlarning axloqiga ta'sir etishini bugungi dunyoda bo'lib o'tayotgan o'zgarishlardan, yoshlarning dunyoqarashi, ongi-shuuri, zamonaviy bilim va malakalarga ega ekanligi bilan ham ahamiyatlidir. Shu nuqtayi-nazardan madaniy jarayonlarning transformatsiyalashuvida yoshlar etikasini shakllantirish omillarini, ijtimoiy-madaniy jarayonlarning transformatsiyasiga xos o'z-o'zini tashkil etish, boshqarish va identiklik kabi xususiyatlari va ularning sinergetik mohiyati hamda ta'lim tizimi va ilm-fanni rivojlantirish, xalqaro madaniy aloqalarni samarali tashkil etish kabi metodologik asoslarini ochib berish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Jahon ilm-fani va tadqiqot markazlarida madaniy jarayonlar, ularning umuminsoniy va milliy mezonlarini tasniflash tamoyillari, globallashuv sharoitida yoshlar axloqini shakllantirish omillariga oid ilmiy-amaliy tadqiqotlar olib borilmoqda. Globallashuv sharoitida ma'naviy tahdidlarning oldini olish, "ommaviy madaniyat"ning zararli ta'siridan yoshlarni himoya qilish, yoshlar axloqi, ongi, xususan, madaniy jarayonlarning transformatsiyalashuvida yoshlar masalasi, yoshlar etikasini o'zgarish jarayonining ilmiy jihatlarini asoslash muhim ahamiyat kasb etadi. Shuning uchun ijtimoiy-madaniy o'zgarishlar sharoitida milliy-ma'naviy qadriyatlarni tiklash, milliy o'zlikni anglash va insonparvarlikni targ'ib etishning ijtimoiy mohiyatini ochib berish hamda yoshlar axloqini takomillashtirishning zamonaviy mexanizmlarini tanqidiy fikrlash, o'zaro ta'sir o'tkazish va muloqot qilish qobiliyatiga, ijodiy yondashishga yo'naltirilgan kreativ metodlarini tadqiq etish zarurati ortib bormoqda.

Yangi O'zbekiston sharoitida xalqimizning ma'naviy-ma'rifiy saviyasini yuksaltirish, milliy madaniyatni yanada rivojlantirish, asrlar davomida shakllangan yuksak ma'naviy qadriyatlar va ma'naviy merosni jahon madaniyati bilan uyg'un holda rivojlantirish, milliy madaniyatning xalqaro madaniy makonda tutgan o'rni va mavqeyini yanada mustahkamlashga oid islohotlar olib borilmoqda. "Meni doimo o'ylantiradigan, tashvishga soladigan yana bir dolzarb masala bu – yoshlarimizning odoq-axloqi, yurish-turishi, madaniy saviyasi, bir so'z bilan aytganda, tarbiyasi bilan bog'liq. Biz bu yo'nalishda katta ishlarni amalga oshiryapmiz. Ammo ularning samaradorligini yanada kuchaytirish uchun bir qator masalalarga jiddiy e'tibor berishimiz zarur"¹. Ayniqsa, barqarorlik va xalqlarning mustahkam rivojlanishiga rahna soladigan turli yangi tahdid va xavflar paydo bo'layotgan bugungi kunda yoshlarga o'z salohiyatini rivojlantirish uchun imkoniyatlarni yaratish, madaniy jarayonlarning yangilanishiga xos fazilatlarni

¹ Мирзиёев.Ш.М. Янги Ўзбекистон стратегияси. – Тошкент. "O'zbekiston", 2021. – Б.257.

hamda zalolatga boshlovchi buzg'unchi g'oyalarga qarshi sog'lom dunyoqarashni shakllantirish omillarini asoslab berish muhim ahamiyat kasb etmoqda.

O'zbekiston Respublikasining 2016-yil 14-sentyabrdagi O'RQ-406-son "Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida"gi qonuni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi PF-158-son "O'zbekiston – 2030" strategiyasi to'g'risida"gi, 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi farmonlari, 2018-yil 14-avgustdagi PQ-3907-son "Yoshlarni ma'naviy-axloqiy va jismoniy barkamol etib tarbiyalash, ularga ta'lim-tarbiya berish tizimini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish chora-tadbirlari to'g'risida", 2018-yil 28-noyabrdagi PQ-4038-son "O'zbekiston Respublikasida milliy madaniyatni yanada rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi, 2021-yil 26-martdagi PQ-5040-son "Ma'naviy-ma'rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorlari, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 31-dekabrdagi 1059-son "Uzluksiz ma'naviy tarbiya konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda dissertatsiya ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. "Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy innovatsion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari" nomli ustuvor yo'nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev tomonidan "Jaholatga qarshi ma'rifat" konsepsiyasi hamda vatanimiz tinchligi yo'lida amalga oshirilayotgan islohotlar, jamiyatning barqaror taraqqiyotini ta'minlash borasidagi ilmiy-nazariy qarashlari aks etgan asarlari, ma'ruza va nutqlari mazkur tadqiqot doirasidagi muammolarni o'rganishda o'ziga xos yondashuvni taqozo etadi hamda tadqiqot ishida ilmiy-metodologik asosi bo'lib xizmat qiladi².

Ijtimoiy hayotda kishilarning harakatlarini tartibga soluvchi g'oyalar haqidagi ilk qarashlar Sharqda "Avesto"da ifodalangan. Unda olam ezgulik va yovuzlik, adolat va adolatsizlik, ziyo va zulmat kabi ikki kuchning kurashi sifatida talqin etiladi³. Fales, Suqrot, Aflotun, Arastu Konfutsiy hamda Sharqda Abu Ali ibn Sino, Abu Rayhon Beruniy, Abu Nasr Forobiy, Yusuf Xos Hojib, Abu Homid G'azzoliy, Jaloliddin Rumiy, Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur kabi ko'plab ulug' allomalarning asarlari, islom falsafasi namoyandalaridan Imom Buxoriy, Imom Termiziy asarlarida yoshlar ma'naviyatini yuksaltirish yuzasidan

² Мирзиёев Ш.М. Буюк келажакимизни мард ва олижаноб халқимиз билан бирга қураимиз. – Тошкент.: Ўзбекистон, 2017. – 488 б.; Мирзиёев.Ш.М. Янги Ўзбекистон стратегияси. – Тошкент. "O'zbekiston", 2021. – 461 б.;

³ Авесто. Тарихий-адабий ёдгорлик. / Асқар Маҳкам таржимаси. -Тошкент: Шарк, 2001. -384 б.

g'oyaviy-nazariy fikrlar ilgari surilgan⁴. Jumladan, buyuk ma'rifatparvar Abdulla Avloniyning "Tarbiya biz uchun yo hayot – yo mamot, yo najot – yo halokat, yo saodat – yo falokat masalasidir" degan so'zlari o'z vaqtida qanchalik muhim bo'lsa, bugungi kunda ham shunchalik dolzarb ahamiyat kasb etayotganligini ta'kidlashimiz joiz⁵.

Shuningdek, transformatsiya va globallashuv jarayonlari hamda ularning namoyon bo'lish xususiyatlarini G'arb faylasuflari V.Gegel, I.Kant, M.Sheler, E.Fromm, Z.Freyd, yangi davr soha olimlari Yu.Xabermas, G.Shiller, Kastels, M.Maklyuen, Ye.Masuda, E.Toffler, Ortega-i-Gasset, Ye.P.Smolskaya, D.Bell, P.Dj.Byukenen, V.I.Zayas, A.Ya.Fliyer, T.A.Fetisova, V.P.Rudnev, V.P.Shestakov, K.T.Teplis, Ye.N.Shaginskaya, O.Xaksli va boshqalar tomonidan tadqiq etilgan⁶. Zamonaviy jamiyatning nazariy jihatlari to'g'risidagi qarashlar D.Bell, transformatsiya jarayonlari ijtimoiy hayotning barcha jabhalariga, xususan yoshlar ma'naviy-axloqiy olamiga ham kuchli ta'sir qilishini M.Kastels ta'kidlab o'tgan. E.Toffler jamiyat madaniy salohiyatini tadqiq etgan⁷. L.Ye.Grinin qarashiga ko'ra, globallashuv mintaqalar va, umuman, jahonning integratsiyasi va yaqinlashuvining natijasidir⁸.

Mamlakatimizda madaniy jarayonlarning transformatsiyasi, yoshlar axloqini yuksaltirish masalasiga doir falsafiy-konseptual qarashlar M.Abdullayeva, S.Shermuhamedov, Q.Nazarov, N.Jo'rayev, .Yaxshilikov va N.Muxammadiyev, N.A.Shermuhamedova, M.Bekmurodov, M.Quronov, N.O.Safarova, A.Erkayev, S.Otamurodov, A.Sharipov va boshqa olimlar tomonidan ilgari surilgan⁹.

⁴ Аристотель. Сочинения в 4-х томах.Т.2. –М.: Мысль,1978. С.-704.; Платон. Сочинения в трех томах.Т. 2. – М.: Мысль, 1970. С.-608.; Абу Наср Форобий. Фозил одамлар шахри. –Тошкент: Халк мероси, 1993. – 83 б; Абу Хомид Ғаззолий. Мукошафат–ул Кулуб (Қалблар кашфиёти) Тошкент: Адолат, 2002. – 98 б.; Ибн Сино.Тиб конунлари. – Тошкент.: 1978. 154-бет.; Абу Райҳон Беруний. Асарлар. –Тошкент. Ғафур Ғулом нашриёти, 1996. 275-бет.; Жалолиддин Румий. Маснавий маънавий. - Тошкент, «Hilol-nashr», 2021. -256 б.; Навоий А. Мукамал асарлар тўплами. Йигирма томлик. Учинчи том. Сабъаи сайёр. – Тошкент: «Фан», 1992. – 165.

⁵ Абдулла Авлоний. Туркий гулистон ёхуд ахлоқ. – Тошкент: Ёшлар нашриёт уйи, 2018. – Б.31

⁶ Гегель. Философия религии в двух томах.Т.1. -М.: Мысль, 1976. - С.-404.; Ницше Ф. Собрание сочинения. Т. 2. - М.: Мысль, 1996 - С.604.; Кон И. Дружба. Этико-психологический очерк. –М.: Политиздат, 1980. С. – 256.; Вейлингер О. Пол и характер. - Ростов на Дону, Феникс, 1998. – С.608.; Лейбниц Г.В. Сочинения в 4–томах. Т. 4. –М.: Мысль, 1989. С.-508.; Маркузе Г. Эрос и цивилизация. – М.: АСТ, 2002. – С.-528.; Ортега-и-Гассет Х. Избранные труды. — М.: Весь мир, 2000. -157-186.; Смольская Е.П. Массовая культура: развлечение или политика? М.: Мысль, 1986. – С. 146.; Белл Д. Социальные рамки информационного общества // Новая технократическая волна на Западе. - Москва: Прогресс, 1986. - С. 330—342.; Патрик Бьюкенен. Самоубийство сверхдержавы Suicide of a Superpower: Will America Survive to 2025. — АСТ, 2016. – С. 640.; Флиер, Андрей Яковлевич. Структура и динамика культурогенетических процессов: автореф. дис. филос. наук: 17.00.08. - Москва, 1995. – С. 34.; Олдос Хаксли: эволюция творчества: монография. — 3-е изд., стер. — М.: ФЛИНТА, 2017. – С. 448

⁷ Белл Д. Грядущее постиндустриальное общество: опыт социального прогнозирования./Иноземцев В.Л.-М: Академия, 1999.-С.956; Кастельс М. Становление общества сетевых структур// новая постиндустриальная волна на Западе: Антология.-М:Академия, 1999.-С.494; Тоффлер Э. Новая технологическая волна на Западе. - М.: Прогресс, 1986. - С.161.

⁸ Гринин.Л.Е Глобализация и национальный суверенитет. История и современность. М.: №1, 2005, с. 811.

⁹ Абдуллаева М.Н., Муминова О.М. Значение информации в развитии общества / Миллий ғоя ва маънавий мерос мавзусидаги конференция. Самарқанд, 2006., -С.9-12.; Шермухаммедов С. Ўзбек халқи маданиятининг миллий шакли, монография, -Т, 1961., Жўраев Н. Мафқуравий иммунитет. –Т.: Маънавият, 2000. –116 б.; Яхшиликков Ж., Мухаммадиев Н. Миллий ғоя: Ўзбекистонни ривожлантириш стратегияси. –

Mavzuga oid tadqiqotlar tahlilidan shuni ko‘rish mumkinki, bugungi kunda madaniy jarayonlarning transformatsiyasining yoshlar ongiga o‘ziga xos yo‘lda ta‘sir etish usullari va ushbu usullarning sifat o‘zgarishlari kundan kunga yangilanayotganligi bilan ahamiyatlidir. Zamonaviylashuv fenomeni ostida transformatsiyalashuvning dinamikasi va uning ijtimoiy ustunligi namoyon bo‘layotganini inobatga olgan holda dissertasiya mavzusi doirasidagi madaniy jarayonlar transformatsiyalashuvining yoshlar ma‘naviy rivojlanishidagi ahamiyati, ta‘sirini tadqiqot doirasida o‘rganish muhim ilmiy-nazariy ahamiyat kasb etadi.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta‘lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya Navoiy davlat pedagogika instituti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq “Barkamol inson shaxsini shakllantirishning obyektiv shart-sharoitlari va subyektiv omillari” (2020-2025 yy.) yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi globallashuv va integratsiyalashuv davrida madaniy jarayonlar transformatsiyasining yoshlar axloqini shakllantirishga xos xususiyatlarini ochib berishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

madaniy jarayonlar transformatsiyasi tushunchasining falsafiy jihatlarini tahlil qilish va sohalararo bog‘liqligini ochib berish;

globallashuv va madaniy jarayonlar transformatsiyasi o‘rtasidagi farqli va umumiy jihatlarini tahlil qilish orqali falsafiy mohiyatini asoslash;

madaniy jarayonlar transformatsiyasida O‘zbekistonda yoshlar axloqini takomillashtirish bo‘yicha ma‘naviy-ma‘rifiy islohotlarning strategik ahamiyatini tadqiq etish;

madaniy jarayonlar transformatsiyasida yoshlar etikasini shakllantirish, xususan, bu borada Yangi O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan islohotlarning pragmatik ta‘sirini aniqlash;

madaniy jarayonlar transformatsiyasida yoshlar etikasini takomillashtirishda milliy qadriyatlarning ahamiyati hamda yoshlar ma‘naviyati va ijtimoiy faolligini yuksaltirish borasida mavjud muammolarni tadqiq etish orqali ularni bartaraf etishga qaratilgan asoslangan pragmatik yondashuvlar ta‘sirini tizimlashtirishdan iborat.

Tadqiqotning obyekti sifatida globallashuv jarayonlari, o‘zgarish va yangilanishlar sharoitida madaniy jarayonlarning transformatsiyasi hamda yoshlar axloqidagi o‘zgarishlar jarayoni tanlangan.

Тошкент: Чўлпон, 2018. - 722 б.; Шермухаммедова Н.А. Социально философские аспекты формирование стиля научного мышления. Дисс.док.фил.наук. -Т., 2002. -С.170.; Бекмуродов М. Ўзбек менталитети кеча ва бугун. // “Тафаккур”, 2002, 2-сон. -23 б.; Куронов М.Биз англаётган ҳақиқат. -Т., Академия, 2010. – 200 б.; Сафарова Н.О. Терроризм: тарихий-фалсафий таҳлил. –Т.: “Noshir”, 2009. – 234 б.; Эркаев А. Оммавий маданият ва маънавий тарбия. –Т.: Маънавият, 2018. -30 б.; Отамуродов С. Глобаллашув: миллатни асраш масъулияти. –Т.: Ўзбекистон, 2018. -478 б.; Шарипов А. Янги Ўзбекистонда маънавий-мафкуравий ислохотлар трансформациясининг ижтимоий-фалсафий таҳлили. Автореферат. -Бухоро, 2021.

Tadqiqotning predmeti madaniy jarayonlar transformatsiyasi jarayonida yoshlar etikasining o'ziga xos xususiyatlarini ijtimoiy-falsafiy tadqiq etishdan iborat.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiyada analiz va sintez, obyektivlik, tarixiylik va mantiqiylik, kompleks yondashuv, dialektik, sinergetik, qiyosiy tahlil, sotsiologik so'rov kabi ilmiy bilish usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi:

globallashtirish va integratsiyalashuvning kuchayib borish sharoitida ijtimoiy-madaniy jarayonlarning transformatsiyasiga xos xususiyatlar (o'z-o'zini tashkil etish, boshqarish va identiklik)ning sinergetik mohiyati hamda ta'lim tizimi va ilm-fanni rivojlantirish, xalqaro madaniy aloqalarni samarali tashkil etish kabi metodologik asoslari, milliy-ma'naviy qadriyatlarni tiklash, milliy o'zlikni anglash va insonparvarlikni targ'ib etish kabi ijtimoiy mohiyati ochib berilgan;

milliy madaniyatlarning jahon madaniyati bilan uyg'unlashuvda milliy qadriyatlarga rahna soluvchi haqiqatni soxtalashtirish, siyosiy va diniy ekstremizm kabi g'oyaviy tahdidlarni oldini olishda yoshlar axloqini takomillashtirishning zamonaviy mexanizmlarini tanqidiy fikrlash, o'zaro ta'sir o'tkazish va muloqot qilish qobiliyatiga, ijodiy yondashishga yo'naltirilgan kreativ metodlari takomillashtirilgan;

ma'naviy taraqqiyotni ta'minlashda yoshlar axloqiy madaniyatini shakllantirishning muomala odobi, ijtimoiy munosabatlarga kirishish va kasb etikasi kabi ichki, adolatlilik, bag'rikenglik va halollik kabi tashqi xususiyatlari asosida jamiyatda uzluksiz ma'naviy tarbiya konsepsiyasini amalga oshirish xususiyatlari takomillashtirilgan;

Yangi O'zbekistonda yoshlarga o'z salohiyatini rivojlantirish uchun imkoniyatlarni yaratish, ma'naviy barkamol avlodni tarbiyalash sharoitida madaniy jarayonlarning yangilanishiga xos Vatanga sadoqat, tadbirkorlik, irodalilik, mafkuraviy immunitet, mehr-oqibatlilik, mas'uliyatlilik, bag'rikenglik, huquqiy madaniyat, innovatsion fikrlash, mehnatsevarlik kabi fazilatlarni hamda zalolatga boshlovchi buzg'unchi g'oyalarga qarshi sog'lom dunyoqarashni shakllantirish orqali ma'naviyatini yuksaltirish omillari asoslab berilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

madaniy jarayonlar transformatsiyasi sharoitida yoshlar etikasini shakllantirish omillari, ong va tafakkurning o'zgarishi, yangilanishining ijtimoiy-falsafiy asoslari va omillari aniqlangan;

zamonaviy ilm-fan yangiliklaridan xabardor bo'lgan yoshlarni milliy mafkuraviy tarbiya asosida kamolga yetkazishning ijtimoiy-falsafiy asoslari, o'ziga xos xususiyatlarining amaliy jihatlari ochib berilgan;

Yangi O'zbekistonda zamonaviy yoshlarni tarbiyalash jarayonining samaradorligini oshirishga xizmat qiladigan amaliy takliflar ishlab chiqilgan, yoshlar ma'naviy-axloqiy tarbiyasini yuksaltirish va hayotga tatbiq etish yo'llari ilmiy jihatdan asoslangan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi tadqiqot jarayonida qo'llanilgan nazariy qarashlar, tadqiqot usullari va yondashuvlar rasmiy manbalardan olinganligi, nashr etilgan ilmiy maqolalar respublika va xalqaro konferensiyalarda sinovdan o'tkazilganligi, tadqiqot ishi natijalari bo'yicha berilgan xulosalar asosida takliflar ishlab chiqilgan bo'lib, tavsiyalar amaliyotda joriy etilgani, olingan natijalarning vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlangani bilan asoslanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqotning ilmiy ahamiyati madaniy jarayonlar transformatsiyasida yoshlar axloqi masalasini tadqiq etish orqali ijtimoiy-siyosiy, ma'naviy-ma'rifiy bilimlarni ilmiy-nazariy va uslubiy jihatdan yangi pog'onaga chiqarish, ilm-fan va ta'lim-tarbiya sohasiga doir ilmiy tadqiqot ishlarida nazariy manba sifatida bilim olishning yangi shakllari va vositalarini ishlab chiqishda, ta'lim sohasidagi tadqiqotlar, ommaviy axborot vositalaridagi chiqishlarda, O'zbekistonda amalga oshirilayotgan tub islohotlarning mohiyatini ochib berishda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi, O'zbekiston Respublikasi Yoshlar ishlari agentligi, Yoshlar ittifoqining faoliyat yo'nalishlari, maqsadlarini belgilashda, tashkil etishda, siyosiy partiyalar qoshidagi Yoshlar qanoti, yoshlar muammolari bilan shug'ullanuvchi NNTlari faoliyatini takomillashtirishda, davlat va yoshlar muloqotini zamonaviy jamiyat talablari asosida olib borishda, ma'naviy tahdidlardan himoyalashga doir o'quv-tarbiya jarayoniga keng qo'llashda, o'quv kurslarining fan dasturlari va ma'ruza matnlarini, mavzuga oid darsliklarni tayyorlashda, ta'lim muassasalari faoliyatini takomillashtirishda hamda mamlakatimizda barqaror taraqqiyotni ta'minlash va yangi ma'naviy qiyofani shakllantirishga qaratilgan ilmiy, ma'naviy, madaniy sohalarda islohotlar mazmunini targ'ib etish faoliyatida foydalanish mumkinligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Madaniy jarayonlar transformatsiyasida yoshlar etikasini shakllantirish omillari doirasida amalga oshirilgan tadqiqot ishi natijalari asosida:

globallashtirish va integratsiyalashuvning kuchayib borish sharoitida ijtimoiy-madaniy jarayonlarning transformatsiyasiga xos xususiyatlar (o'z-o'zini tashkil etish, boshqarish va identiklik)ning sinergetik mohiyati hamda ta'lim tizimi va ilm-fanni rivojlantirish, xalqaro madaniy aloqalarni samarali tashkil etish kabi metodologik asoslari, milliy-ma'naviy qadriyatlarni tiklash, milliy o'zlikni anglash va insonparvarlikni targ'ib etishga doir ilmiy yangiliklar va taklif-tavsiyalaridan O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlis huzuridagi Nodavlat notijorat tashkilotlarini va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlarini qo'llab-quvvatlash Jamoat fondining 47-09/07-13-son "Kitobxonlikka yangi qadam" nomli grant loyihasida belgilangan vazifalarni amalga oshirishda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlis huzuridagi Nodavlat notijorat tashkilotlarini va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlarini qo'llab-quvvatlash Jamoat fondining 2022-yil 25-oktyabrda 23/1-608-son ma'lumotnomasi). Natijada, loyiha doirasidagi globallashtirish sharoitida tinchlik va barqarorlikka tahdid soluvchi g'oyaviy, mafkuraviy xurujlarga qarshi

kurashishning zamonaviy-o'ziga xos mexanizmlaridan keng foydalanish, xususan, loyiha doirasidagi milliy axloqiy normalarni targ'ib etuvchi milliy adabiyotlar bazasini shakllantirish va targ'ibot tadbirlarini ilmiy-amaliy ahamiyatini oshishiga xizmat qilgan;

milliy madaniyatlarning jahon madaniyati bilan uyg'unlashuvida milliy qadriyatlarga rahna soluvchi haqiqatni soxtalashtirish, siyosiy va diniy ekstremizm kabi g'oyaviy tahdidlarning oldini olishda yoshlar axloqini takomillashtirishning zamonaviy mexanizmlarini tanqidiy fikrlash, o'zaro ta'sir o'tkazish va muloqot qilish qobiliyatiga, ijodiy yondashishga yo'naltirilgan kreativ metodlari bo'yicha ishlab chiqilgan takliflar, ilmiy-nazariy xulosalardan O'zbekiston "Milliy tiklanish" demokratik partiyasining 2019-yil 1-noyabrdagi VI Syezdida tasdiqlangan Dasturining IV. Ijtimoiy sohani yanada rivojlantirish, mamlakatda ta'lim-tarbiya tizimini tubdan isloh etishning ustuvor yo'nalishlari bandida belgilangan vazifalar ijrosini ta'minlashda foydalanilgan (O'zbekiston "Milliy tiklanish" demokratik partiyasi Markaziy Kengashining 2022-yil 20-oktyabrdagi 02/01-216-son ma'lumotnomasi). Natijada, globallashtayotgan dunyoning o'ziga xos jihatlari borasidagi bilim va ko'nikmalarni yuksaltirish yuzasidan tashkil qilingan o'quv dasturlarning mazmunan boyishiga xizmat qilgan;

ma'naviy taraqqiyotni ta'minlashda yoshlar axloqiy madaniyatini shakllantirishning muomala odobi, ijtimoiy munosabatlarga kirishish va kasb etikasi kabi ichki, adolatlilik, bag'rikenglik va halollik kabi tashqi xususiyatlari asosida jamiyatda uzluksiz ma'naviy tarbiya konsepsiyasini amalga oshirish xususiyatlariga oid ilmiy-amaliy taklif va tavsiyalaridan Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazining 2021-2022-yillarda o'tkazilgan targ'ibot faoliyatida, jumladan, 2022-yilda ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish va sohani rivojlantirish bo'yicha chora-tadbirlar dasturi IX yo'nalishi 37-bandi "Geosiyosiy va mafkuraviy jarayonlarni muntazam o'rganish, turli ma'naviy tahdidlarga qarshi samarali g'oyaviy kurash olib borish hamda bu boradagi xalqaro tajribani o'rganish"ga qaratilgan targ'ibot ishlarini o'tkazishda foydalanilgan (Respublika Ma'naviyat va ma'rifat kengashi Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazining 2022-yil 26-oktyabrdagi 02-22/386-son ma'lumotnomasi). Natijada, dissertasiyada ilgari surilgan takliflar, tavsiya va xulosalar bugungi kunda mamlakatimizda milliy g'urur, vatanparvarlik, insoniylik kabi xususiyatlarini o'zida mujassamlashtirgan kuchli ma'naviyatli, barkamol yoshlarni tarbiyalashga xizmat qilgan;

Yangi O'zbekistonda yoshlarga o'z salohiyatini rivojlantirish uchun imkoniyatlarni yaratish, ma'naviy barkamol avlodni tarbiyalash sharoitida madaniy jarayonlarning yangilanishiga xos Vatanga sadoqat, tadbirkorlik, irodalilik, mafkuraviy immunitet, mehr-oqibatlilik, mas'uliyatlilik, bag'rikenglik, huquqiy madaniyat, innovatsion fikrlash, mehnatsevarlik kabi fazilatlarni hamda zalolatga boshlovchi buzg'unchi g'oyalarga qarshi sog'lom dunyoqarashni shakllantirish orqali ma'naviyatini yuksaltirish omillariga oid amaliy taklif va tavsiyalaridan O'zbekiston Respublikasi Yoshlar ishlari agentligining yoshlar siyosatini amalga oshirishga qaratilgan targ'ibot tadbirlarida, shu jumladan, O'zbekiston

Respublikasi Yoshlar ishlari agentligi to'g'risida NIZOMning "III. Agentlik va uning hududiy bo'linmalarining asosiy vazifalari va funksiyalari" bobida belgilangan amaliy loyihalarni tashkillashtirishda va samaradorligini oshirishda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Yoshlar ishlari agentligining 2022-yil 24-oktyabrdagi 2-13-23-3496-son ma'lumotnomasi). Natijada, yoshlarni Vatanga sadoqat, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalash, ularning sog'lig'iga zarar yetkazuvchi axborotdan himoya qilish, o'sib kelayotgan yosh avlodni ilm-fan va innovatsiyalarga keng jalb etishga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshirishga hamda transformatsiya jarayonlarida yoshlar etikasi, globallashtayotgan dunyoning o'ziga xos jihatlari borasidagi bilim va ko'nikmalarini oshishga xizmat qilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 6 ta xalqaro va 6 ta respublika miqyosidagi ilmiy-amaliy konferensiyalarida ma'ruza ko'rinishida muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarning e'lon qilinishi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 17 ta ilmiy ish, shu jumladan, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 5 ta maqola (ulardan 2 ta xalqaro va 3 ta respublika ilmiy jurnallarda) chop etilgan.

Dissertatsiyaning hajmi va tuzilishi. Dissertatsiya tarkibi kirish, uch bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat. Dissertatsiya hajmi 128 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning "**Kirish**" qismida mavzuning dolzarbligi va zarurati, tadqiqotning respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi, muammoning o'rganilganlik darajasi, tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi, tadqiqotning maqsadi, vazifalari, obykti, predmeti va usullari, ilmiy yangiligi, amaliy natijalari, tadqiqot natijalarining ishonchliligi, ilmiy-amaliy ahamiyati, amaliyotga joriy etilganligi, aprobatsiyasi, nashr etilgan ishlarning soni, dissertatsiyaning tuzilishi asoslangan.

Dissertatsiyaning "**Madaniy jarayonlar transformatsiyasi va yoshlar etikasining nazariy-metodologik asoslari**" deb nomlangan birinchi bobida transformatsiyalashuv jarayonlarini avj olganligi va, albatta, dunyo bo'ylab o'zgarishlar, xususan, madaniy jarayonlarning o'zgarishi va ushbu jarayonlarda yoshlar etikasini shakllantirilishining nazariy-metodologik asoslari tadqiq etilgan. Madaniy jarayonlar transformatsiyasi masalasini nazariy jihatdan tadqiq etish maqsad qilingan.

Globallashtayotgan nazariy jihatlari, birinchi navbatda, madaniy jarayonlar transformatsiyalashuviga olib kelishining nazariy jihatlari va, albatta, ushbu jarayonlarga konstruktiv yondashuvlar demokratik davlat va fuqarolik jamiyatining ma'rifiy strukturasi uchun muhim nazariy manba vazifasini bajaradi.

Dissertatsiyada transformasiyalashuv jarayonida yoshlarning dunyoqarashi, ong-u tafakkuri, hayotga bo'lgan munosabatlari tubdan yangilanganligi ochib berilgan. Ushbu o'zgarishlar, "yangicha" qarashlarning muhim omili hamda o'ziga xosligi nimalardan iborat, degan savolga ham javob topish kerak. Globallashuv jarayonlarida madaniy jarayonlarning transformasiyasi sharoitida yoshlar axloqi masalasi qator olimlar tomonidan tadqiq etilganligini ko'rish mumkin.

Dissertatsiyada transformatsiyaning ta'rifi keltirilgan bo'lib, u quyidagicha ifodalangan: *transformasiya* (lot. *transformatio* – qayta o'zgarish, qayta hosil bo'lish (genetikada) – hujayraga yot DNK kirishi natijasida uning irsiy xususiyatlari o'zgarishi¹⁰; prokriotlarda genetik material almashinish usullaridan biri¹¹). Ushbu mulohazalardan ma'lumki, transformatsiya tushunchasi bu, birinchi navbatda, genetik va biologik tushuncha hisoblanadi. Informatsion jamiyatda axborotning keng ko'lamda ishlatilishi, unga talabning keskin oshishi barchaning global axborot makoniga birlashuviga olib keladi. Bu birlashuv o'z navbatida jamiyat hayotini, xususan, madaniy jarayonlarni o'zgartiradi. Shu o'rinda transformatsiya termini ishlatish juda o'rinli. Xususan, madaniy jarayonlar transformatsiyasi bu – inqilob yoki katta o'zgarish emas. Bu mavjud madaniyatning boshqa bir madaniyatni ko'rinmas unsurlari natijasida muntazam o'zgarib borishi jarayoni hisoblanadi. Yuqorida ta'kidlaganidek, ushbu tushuncha genetik, biologik tushuncha hisoblanib, ma'lum bir virus organizmga kirib ichidan ushbu organizmni o'zgartiradi. Lekin tashqarida ushbu o'zgarish sezilmaydi.

Ta'kidlash joizki, globallashuv jarayonlari birinchi navbatda, madaniy jarayonlar transformasiyasi uchun zamin yaratadi va jamiyatda madaniyatlar almashinuvi juda sekinlik bilan ro'y bera boshlaydi. Ushbu jarayonlarda milliy qadriyat va milliy-ma'naviy merosni yuksaltirish orqali madaniyatni aslligini, milliy o'ziga xosligini saqlab qolish imkoni mavjud bo'ladi. Globallashuv va transformatsiya jarayonlari mutlaqo yangicha ma'no-mazmundagi xo'jalik, ijtimoiy-siyosiy, tabiiy-biologik global muhitning shakllanishini va shu bilan birga, mavjud milliy va mintaqaviy muammolarning jahon miqyosidagi muammolarga aylanib borishini ifoda etmoqda. Ta'kidlash lozimki, globallashuv ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy hayotning intensivlashuvi bilan bevosita bog'liq holatda yuzaga keladigan jarayon hisoblanadi. Bu – ijtimoiy rivojlanishning yangi bosqichidir va uning paydo bo'lishi fan va texnika yutuqlari tufayligina yuzaga kelgan. U inson faoliyatining turli sohalarida sodir bo'layotgan ko'pdan ko'p teran o'zgarishlardan tarkib topadi. Ushbu o'zgarishlar o'zida madaniy jarayonlar transformasiyasini aks ettiradi.

Dissertatsiyada madaniy jarayonlarning transformasiyalashuvi jamiyat yangi bir texnogen madaniyatni yaratishiga olib kelgani ta'kidlangan. Bugungi globallashuv jarayonlari jamiyatda informatsion texnologiyalarga keng yo'l ochilishi bilan ahamiyatlidir. Bu o'z navbatida yangi madaniyat shakllanishiga

¹⁰ <https://ru.wikipedia.org/wiki/трансформация>.

¹¹ [https://kartaslov.ru/ значение-слова/трансформация](https://kartaslov.ru/значение-слова/трансформация)

zamin yaratadi. Shakllanayotgan madaniyatga fikrlash uslubining o'zgarishi xosdir. Kompyuterlar izchil va mantiqiy ishlaydi va odamlarni fikrlash uslubini abstraksiyaning eng yuqori – algebraik darajasida takomillashtirishga majbur qiladi. Emosional boy geometrik fikrlash tarzi o'z-o'zidan siqib chiqariladi.

Ma'lumki, rivojlangan mamlakatlarda eydetizm, ya'ni xotiraning narsalar va hodisalar yorqin obrazlarini saqlab qolish qobiliyati yo'qolib boradi. Tabiiy til o'z xususiyatlari – ko'p ma'noliligi, turli bo'yoqlarga boyligini, rang-barangligi yo'qotila boshlanadi. Kompyuterlarning algoritmik tili insonni metafizik fikrlashga, uning dialektik tomonidan ko'ra, formal-mantiqiy tomoniga ko'proq ahamiyat berishga o'rgatadi. Insonning intuitsiyasi susayadi, fikri o'tmaslashadi, ijod qilish qobiliyati hisobga olinmay qo'yadi. Jamoaga kompyuterlarning "parchalovchi" ta'siri, "kompyuter elitasi"ning ajralishi kuzatiladi, insonning muayyan foydali ko'nikmalari, asrlar mobaynida to'plangan "kasb sirlari" va mahoratning yo'qolishi sodir bo'ladi.

Dissertasiyada axloqiy tushunchalar jamiyat o'zgarishi bilan rivojlanib, o'zgarib turadigan ijtimoiy hodisa sifatida baholangan. Shuningdek, bugun shakllanib ulgurgan madaniy jarayonlarning transformasiyasi sharoitida yoshlar etikasi – axloqiy qarashlari ham ma'lum ma'noda yangi bosqichga o'ta boshladi.

Ma'lumki, madaniy jarayonlarning transformasiyalashuvida eng asosiy vazifa bu yoshlar etikasiga alohida e'tibor qaratish va, o'z navbatida, yoshlar axloqida milliy xususiyatlarni yuksaltirish muhim hisoblanadi. Dissertasiyada olib borilgan tadqiqotlarga tayangan holda, madaniy jarayonlar transformatsiyasi tushunchasi XX asrda kompyuter va internetning vujudga kelishi bilan paydo bo'lgan bo'lsa-da, uning ildizlari uzoq davrlarga borib taqalishi ilmiy asoslab berilgan.

Transformatsiya murakkab hodisa hisoblanadi va o'zgaruvchan xarakterli fenomendir. Madaniy jarayonlar transformatsiyasi hodisasini falsafiy tahlil qilishda globallasuv jarayonlarini inobatga olish zarur. Madaniy jarayonlarning transformatsiyasi va globallasuv tushunchalarining ijtimoiy-falsafiy tahlili shundan dalolat beradiki, ushbu ijtimoiy hodisalar yoshlar, jamiyatdagi ma'lum bir guruhlar, ayrim mamlakatlar uchungina moddiy va ma'naviy tahdid bo'lib qolmasdan, balki hozirgi davrda jamiyatlar uchun katta salbiy oqibatlarini keltirib chiqarishi mumkin. Buni bugungi tahlikali dunyoning turli nuqtalarida yoshlar ishtirokidagi xilma-xil ko'rinishda yuz berayotgan jamiyatdagi buzg'unchi g'oyalar ostida yashiringan harakatlar, inson ongi uchun olib borayotgan kurashlar isbot qilib turibdi.

Agar globallasuv jarayonlari boshlanishi bilan transformasiyalashuvning endigina vujudga kelgan davrlarda muayyan bir yo'nalishlarda o'zgarishlar bo'lgan bo'lsa, endi esa ushbu o'zgarishlar butun bir madaniy jarayonlarning o'zgartirishgacha bo'lgan maqsadlarni, turli vositalari hamda ko'lami jihatidan hech qanday to'siq bilmay, xalqaro miqyosda yiriklashib ma'lum bir darajada "muammo"ga aylanib bormoqda. Madaniy jarayonlarning transformasiyalashuvi kontekstida yoshlar etikasini tahlil qilishda ijtimoiy falsafa, psixologiya kabi barcha zamonaviy falsafiy yondashuvlarni inobatga olish muhim hisoblanadi.

Dissertasiyaning ikkinchi bobi “**Madaniy jarayonlar transformatsiyasida yoshlar etikasini shakllantirishning pragmatik asoslari**” deb nomlanib, jahonning qator mamlakatlarida yoshlarning har tomonlama rivojlanishi, xususan, ham jismonan, ham ma’nan barkamol avlodni tarbiyalash, zamonaviy bilim hamda kasb egasi bo’lishi taraqqiyotning eng muhim omili ekanligi asoslab berilgan.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev 2018-yil 28-dekabr kuni Oliy Majlisga Murojaatnomasida “...oldimizga qo‘ygan ulkan vazifalarni amalga oshirishda biz uchun kuch-qudrat manbayi bo‘ladigan milliy g‘oyani rivojlantirishimiz zarur. Xususan, milliy o‘zligimizni anglash, Vatanimizning qadimiy va boy tarixini o‘rganish, bu borada ilmiy-tadqiqot ishlarini kuchaytirish, gumanitar soha olimlari faoliyatini har tomonlama qo‘llab-quvvatlashimiz lozim”¹², - deb ta’kidlagan edi. Shu nuqtayi-nazardan, O‘zbekistonda xalqimizning ma’naviy boyliklarini, jahon sivilizatsiyasining eng ilg‘or yutuqlarini o‘zida mujassamlashtirgan yangi avlodni shakllantirish bugunning eng muhim vazifasiga aylandi. Ayniqsa, jamiyatimizda ro‘y berayotgan ma’naviy tiklanish, yoshlarni milliy ma’naviy, madaniy merosimiz durdonalari bilan tanishtirish jarayonlari yuksak darajali, innovatsion texnologiyalaridan foydalanishni rag‘batlantirish asosiga qurilayotganligi diqqatga sazovordir.

Tadqiqotda madaniy jarayonlar transformatsiyasi sharoitida g‘oyaviy tahdidlarning oldini olish, madaniy transformatsiya sharoitida yoshlar axloqini shakllantirish muammolari hamda g‘oyaviy tahdidlar sharoitida sog‘lom madaniy muhitning o‘rni tadqiq etilgan. Madaniy jarayonlar transformatsiyasida g‘oyaviy tahdidlarning oldini olish masalasi ijtimoiy-falsafiy jihatdan tahlil etilgan.

Inson tabiatan izlanuvchan, u axborotlarni qabul qiladi, tushunadi, qayta ishlaydi, samaralilikka intiladi. Har qanday axborot inson ruhiy holatiga ta’sir qiladi. Dialektik aloqadorlik aynan axborotlar qabul qilish, o‘zlashtirish, tafakkurga ta’sir etib, olamni o‘zgartirishda yaqqol namoyon bo‘ladi. Aholining mediamahsulotlarni eng ko‘p iste’mol qiladigan qismi yoshlar hisoblanadi. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev BMT Bosh Assambleyasining 72-sessiyasida so‘zlagan ma’ruzasida: “Sayyoramizning ertangi kuni, farovonligi farzandlarimiz qanday inson bo‘lib kamolga yetishi bilan bog‘liq. Bizning asosiy vazifamiz – yoshlarning o‘z salohiyatini namoyon qilishi uchun zarur bo‘lgan sharoitlar yaratish, zo‘ravonlik g‘oyasi “virusi” tarqalishining oldini olishdir. Buning uchun yosh avlodni ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash, uning huquq va manfaatlarini himoya qilish borasidagi ko‘p tomonlama hamkorlikni rivojlantirish lozim, deb hisoblaymiz”¹³, deb ta’kidlagan. Shu munosabat bilan O‘zbekiston globallashuv va axborot-kommunikasiya texnologiyalari jadal rivojlanib borayotgan bugungi sharoitda yoshlarga oid siyosatni shakllantirish va amalga oshirishga qaratilgan umumlashtirilgan xalqaro huquqiy hujjat – BMTning Yoshlar huquqlari

¹² Ўрол Содиқ. Тарихни қаердан бошлаш керак: миллий ғояни ривожлантириш учун таклифлар // <https://kun.uz/51239335>

¹³ O‘zbekiston Prezidentining BMT Bosh Assambleyasi 72-sessiyasidagi nutqi jahon ommaviy axborot vositalari nigohida // <https://uza.uz/oz/posts/o-zbekiston-prezidentining-bmt-bosh-assambleyasi-72-sessiyasi>

to'g'risidagi xalqaro konvesiyasini ishlab chiqishni taklif etadi", deya ushbu jarayonlarga o'z munosabatini bildirib o'tdi¹⁴.

Transformatsiya jarayonlarida "tahdid" tushunchasi jamiyatda asosiy fenomen bo'lib xizmat qilmoqda. Qachonki jamiyatda transformatsiya jarayonlari boshlanishi bilan jamiyatning milliy omillariga to'g'ri kelmaydigan har qanday o'ziga xoslik jamiyatda tahdid sifatida e'tirof etiladi. Birinchi nuqtayi nazardan ushbu qarash ham o'rinli. Xususan, "tahdid", "ma'naviy tahdid" deganda inson hayotiy faoliyati, umuman, yashashini chigallashtiruvchi hamda aniq tarixiy davr davomida aniq maqsad uchun yo'naltirilgan ijtimoiy strukturani, to'g'rirog'i, davlatning siyosiy asosini zaiflashtiruvchi, qolaversa, yemirishga qaratilgan mahalliy, hududiy, mintaqaviy, va nihoyat, umumsayyoraviy salbiy omillarning "kirib kelishi" tufayli yuz beruvchi makon va zamonda muayyan salbiy, siyosiy, ijtimoiy va tarixiy vaziyatni tushunish lozim.

Ma'naviy tahdidlar bir necha ko'rinishdan iborat bo'lib, *birinchi ko'rinish* mafkuraviy xurujlarni o'z ichiga qamrab oladi. Bunda asosiy e'tibor shaxs fikrini buzish, shaxs dunyoqarashini aynitish va shaxs pozitsiyasini o'zgartirishga qaratiladi. *Ikkinchi ko'rinish* g'oyaviy tahdid. Bu xuruj ham uch ma'noga ega bo'lib, bunda asosiy e'tibor shaxs xulq-atvorini, fikrini aynitish, shaxs axloqiy munosabatlarini izdan chiqarish va shaxs muomalasini buzishga qaratiladi. *Uchinchi ko'rinishi* informatsion hujum. Bunda asosiy e'tibor shaxsga noto'g'ri ma'lumot berish, shaxsni bilimsizligini kuchaytirib, uning intellektual salohiyatini yo'qqa chiqarishga qaratiladi. Noto'g'ri ma'lumotga ega bo'lish, sayoz bilimlilik va samarasiz faoliyat shaxsning madaniy oqsoqligidan dalolatdir. Bir so'z bilan aytganda, ma'naviy tahdidlar jamiyat kishilarini bilimsiz kimsalarga aylantiruvchi ma'naviy tubanlik illatlaridandir.

Informatsion jamiyatda ma'naviy tahdidlarning o'ziga xos xususiyatlari quyidagilardan iborat:

Birinchidan, ma'naviy tahdidlar nosog'lom turmush tarzi asoratidir;

Ikkinchidan, ma'naviy tahdidlar ma'naviy va axloqiy tubanlik illatlarini ifodalaydigan subyektiv omillar majmuidir;

Uchinchidan, ma'naviy tahdidlar shaxs axloqiy ongini buzish vositasida jamiyat hayotini izdan chiqarishga, nosog'lom turmush tarzini yoyishga yo'naltirilgan.

Tadqiqotda bugungi transformasiyalashuv jarayonlarida yoshlar dunyoqarashida sog'lom fikr, e'tiqod, ishonch va milliy qadriyatlarining ustuvorligi yot mafkuralarga qarshi immunitetni tarbiyalash borasidagi amaliy ishlarda yoshlar hodisalarini dunyoviylik, ilmiylik tamoyili asosida tahlil qilish va baholashga odatlantirish, o'z qarashlarini himoya qilishga o'rgatish, buzg'unchi mafkuralarga har doim, hamma joyda murosasiz bo'lishlik taqozo etilayotganligi alohida ta'kidlangan.

¹⁴Мирзиёев Ш.М. Халқимизнинг розилиги бизнинг фаолиятимизга берилган энг олий баҳодир. 2-жилд. - Т.: Ўзбекистон, 2018. – Б.252.

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy, madaniy, ma'rifiy va ta'lim tizimidagi islohotlar nafaqat farovon turmush tarzini yo'lga qo'yish, balki ma'naviyati yuksak yangi avlodni shakllantirishga xizmat qiladigan ijtimoiy-ma'naviy muhitni yaratishni nazarda tutadi. Transformatsiyalashuv jarayonlarida jamiyat ma'naviy hayotining har qanday salbiy illatlarga, xususan, ma'naviy tahdidlarga qarshi tura olishi bu mamlakatning madaniy jarayonlarning transformatsiyalashuvida g'oyaviy mafkuraviy jihatdan mustahkamligidan dalolat beradi.

Dissertatsiyaning **“Yangi O‘zbekistonda madaniy jarayonlar transformatsiyasi va yoshlar ma’naviyatini yuksaltirish omillari”** deb nomlangan uchinchi bobida transformatsiya jarayonlari hamda Yangi O‘zbekiston sharoitida yoshlar ma’naviy-axloqiy qiyofasi shakllanishining o‘ziga xos xususiyatlarining ahamiyati ochib berilgan.

Prezident Shavkat Mirziyoyev raisligida 2021-yil 19-yanvar kuni ma'naviy-ma'rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish, bu borada davlat va jamoat tashkilotlari hamkorligini kuchaytirish masalalariga bag'ishlangan videosektor yig'ilishida “Biz Yangi O‘zbekistonni barpo etishga qaror qilgan ekanmiz, ikki mustahkam ustunga tayanamiz. Birinchisi – bozor tamoyillariga asoslangan kuchli iqtisodiyot. Ikkinchisi – ajdodlarmizning boy merosi va milliy qadriyatlarga asoslangan kuchli ma'naviyat”¹⁵, - ekanligi alohida ta'kidlandi.

Madaniy jarayonlar transformatsiyasi birinchi navbatda jamiyat yangilanishini taqozo qiladi. Qaysi ma'noda-ki, jamiyatda jarayonlar o'z-o'zidan shaklan o'zgaradi, yangilanadi. Xususan, bugungi kunda butun xalqimizning qalbidan chuqur joy olgan, umummilliy harakatga aylanib borayotgan “Yangi O‘zbekiston” g'oyasi zamirida ana shunday ulug' ajdodlarimiz, umuman olganda, milliy tariximizda Birinchi va Ikkinchi uyg'onish davrlariga asos solgan alloma bobolarimizning orzu-intilishlari va armonlari ham mujassam desak, adashmagan bo'lamiz. Insoniyat tarixi shundan dalolat beradiki, har qaysi xalq hayotidagi ma'naviy uyg'onish jarayonlari milliy o'zlikni anglashga olib keladi hamda mamlakatning iqtisodiy, madaniy taraqqiyotini yangi bosqichga ko'taradi. Bunday ijtimoiy noyob hodisa “Renessans” – uyg'onish, qayta tiklanish, yuksalish deb atalishi barchamizga ayon”¹⁶.

